



## **HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYALARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI** (Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida)

**Egamberdiyeva Kamola Ibrohimovna,**  
*Respublika ta’lim markazi, Filologiya bo’limi metodisti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206986>

*Annotatsiya:* Maqolada yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizining “Momo Havo” hikoyasi obraz yaratish mahorati nuqtayi nazaridan o’rganilgan. Shuningdek, badiiy detallarning asar problematikasini ochib berishdagi ahamiyati tadqiq etilgan.

*Kalit so’zlar:* obraz, hikoya, detal, dialog, personaj, janr.

Zamonaviy o‘zbek nasrida barakali ijod qilayotgan adiblardan biri Zulfiya Qurolboy qizidir. Uning «Momo Havo» nomli hikoyasida bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilar ma’naviyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qalamga olingan. Hikoyada boylik va manfaat yo‘lida insoniylik qiyofasini yo‘qotgan Nafosat va uning sherigi doktor Davlatning xarakter sifatidagi mohiyati yozuvchi tomonidan mahorat bilan ochib berilgan. Avvalo, hikoya nomiga to‘xtaladigan bo‘lsak, asar «Momo Havo», ya’ni insoniyatning onasi, mehr-muhabbatning, avlodlar davomiyligining sababchisi bo‘lgan muhtaram zot nomi bilan ataladi. Ayni paytda, hikoya nomi orqali Momo Havoning sarkash istagi bilan jannatdan quvilgan ilk erkak va ayol haqidagi mifologik qarashlarga ham ishora qilingan. Aslida hikoyadagi Nafosatga «Momo Havo» nomini Akbar beradi. Nafosat, ya’ni Akbarning nazaridagi «Momo Havo» uni yerda loyga belanib yotgan yo‘lakdan ko‘targan edi. Biroq Nafosat keyinchalik o‘z maqsadiga erishgach, mayin jilmaygan ko‘yi Akbarning jonini sug‘urib oladi. Hayotda yo‘lini yo‘qotgan va ichkilikka mukkasidan ketgan Akbarni yomg‘irda yiqilib qolgan joyidan olib, uyigacha kuzatib, shirin so‘zlar va jilmayishlar bilan o‘ziga rom etgan, hayotga qaytarib, unga turmushga chiqqan, hayotini obdon o‘rgangach, sichqondori berib o‘ldirgan, ortidan yig‘lab, ma’rakalarini o‘tkazgan Nafosatning makkorligi, tubanligi har qanday odamni dahshatga solmay qo‘ymaydi. Hikoyada moddiy boylik ilinjida odamlar orasidagi xudbinlik, o‘z manfaatini o‘ylash oqibatlarini madaniy ko‘rinishdagi yovvoyilikni shakllantirishi mumkinligi aks etgan. Oqko‘ngil, samimiy va sodda, biroq jamiyatdagi o‘zgarishlar oldida irodasi bo‘shlik qilgan Akbarni xotini Gulshoda tashlab ketadi, qizi nogiron tug‘iladi, onasi vafot etadi. Turmushning bu kabi zarbalari yigitning qaddini bukib qo‘yadi, u ichkilikka beriladi. Uning hech kimi yo‘qligi, yaqinlari undan yuz o‘giranidan xabar topgan



Nafosat va Davlat uning uyiga kirib olishga harakat qilishadi. Nafosat Akbarga yaqinlashib, unga turmushga chiqishgacha boradi, soxta sevgi ko‘rsatadi, sevimli va mehribon xotin rolini o‘ynaydi. Akbar “Momo Havo” deb atagan ana shu makkor ayol sekin-asta unga sichqondori berib boradi. Insonga nisbatan nafrat va boylikka bo‘lgan hirs Nafosatning vujudini qamrab oladi. Zotan, «Kishilik jamiyatining yovvoyilashishiga, undagi barcha huquq va haqiqatlarning buzilishiga hamda odamlarni yirtqich hayvonlar to‘dasiga aylanishiga befarq bo‘lgan odam bu ishi bilan yaqinlariga mehru muhabbati yo‘qligini isbotlaydi» [4]. Demak, inson qalbida mehr-muhabbat bo‘lmasa, u inson emas, balki olim ta’kidlagandek, yirtqichga aylanadi. Zulfiya Qurolboy qizi mazkur asarida so‘nggi yillarda jamiyatda shakllangan mehrsiz, befarq, loqayd odamlarni kelajak fojeadan ogoh etadi. Mazkur asar tiliga e’tibor qilinsa, unda personajlar ruhiyatini ochish mahorati yetuk darajada namoyon bo‘lganligini sezish mumkin. Asar boshida yomg‘ir yog‘ishi va Akbar yurgan yo‘lakning o‘ydim-chuqurligi, notekis ekanligi bir necha bor qayd etiladi. Masalan, “Yomg‘ir uch kundan buyon tinimsiz shivalib yog‘ardi. Asfalt ko‘chib, o‘nqircho‘nqir tuproq yo‘lga aylangan yo‘lak bilch-bilch loy, yo‘lak chetidagi beton ariqchalar loyqa suvga to‘lgan, olovrang yaproqlar oyoq ostida ezilib, loyga qorishib ketgan, oqibatda yo‘l sirpanchiq bo‘lib qolgandi” [1.255]. Diqqat qilinsa, yomg‘ir yog‘ishi, yo‘llarning notekisligi, olovrang yaproqning yerda yotishi Akbarning ruhiy holatini ifoda etishga ham xizmat qiladi. Bunda muallif ruhiy parallelizm usulidan foydalangan. Asarning birinchi sahifasidayoq “yo‘l”, “yo‘lak” so‘zlarining olti marta takrorlanishi hamda ularning notekisligiga urg‘u berish orqali o‘quvchi diqqati Akbarning murakkab va notekis umr yo‘liga qaratiladi. Dastlab oddiy detal vazifasini bajargan yo‘lak obraziga hikoya davomida yangi badiiy-estetik vazifa yuklanadi. Ushbu detal asar problematikasini ochib berishdagi muhim vositaga aylanib, hayot yo‘llari bir tekis emasligi, unda turli xil odamlar va sinovlar uchrashi mumkinligiga ishora qiladi. Yozuvchi Akbarning yashil devorni paypaslagan cha ketib borishi, u qo‘rqib yuradigan hodisa sodir bo‘lishi – bexosdan yiqilib tushishi, o‘rnidan turmoqchi bo‘lgani, muzday yer misdek qizib yotgan ko‘ksiga xush yoqqani uchun g‘ujanak bo‘lib, pishillab uxlab qolganini tasvirlaydi. Shundan keyin “Uyiga yetishiga ellik qadamcha qolgandi” [1.255] degan izoh keltiriladi. Gap mazmunida afsus, nadomat bo‘rtib turibdi, bunda muallif pozitsiyasini anglash mumkin. Avvalgi o‘rinlarda fe’llarning aniq o‘tgan zamon shakli (“intildi”, “xush yoqdi”, “bo‘lib oldi”, “qoldi”) qo‘llanilgan bo‘lsa, parchada uzoq o‘tgan zamon (“qolgandi”) shakli qo‘llanilgan. Ya’ni endi bir o‘zi uyiga kirmaydi, endi uning hayotiga zomin

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



bo‘lguvchi odam uni olib kiradi. Roviylar nutqida shu ellik qadam uzoqdek tuyulib qolganidan afsuslanish bor. Bu bilan personajning yaqin kelajakdagi xatti-harakatlari o‘zgarmasa, falokat yuz berishidan ogohlantirmoqchidek tuyuladi. Muallif qahramonining hayotiga aralashmaydi, uni o‘z xarakter mantiqiga muvofiq tasvirlaydi. Shu bilan birga uning oldida boshqa yo‘l ham borligini, irodasini ishga solib o‘zi tushib qolgan vaziyatdan chiqib ketishiga imkon topishi mumkinligini ham ta’kidlashga harakat qiladi. Bu bilan yozuvchi personaj xatti-harakatlarini real aks ettirishga va uning o‘zi anglab yetmagan imkonlari mavjudligini ko‘rastishga erishadi. Zero, Akbar uygacha bo‘lgan ana shu ellik qadamni o‘zi bosib o‘tishi mumkin bo‘lganidek, hayotidagi qiyin vaziyatdan ham Nafosatning soxta yordamlarisiz chiqib ketishga qodir edi. Nafosat obrazi tasviri uchun foydalanilgan so‘z va iboralar asar tilidagi badiiy ta’sirdorlikni kuchaytirgan. Ayolning jilmayishi va Akbarning savollariga munosib javob berishi o‘quvchi qalbiga iliqlik olib kiradi. Dastlab Nafosat portreti quyidagicha beriladi: “Kalta qora plashi o‘ziga yarashgan, ko‘hlik juvon qo‘lini xiyol oldinga uzatgancha soyabonini tutib, uni yomg‘irdan to‘sib turardi. – Keling, yordamlashaman... – juvon qo‘lini uzatdi” [1.256]. Ayniqsa, Akbar va uning muhitidagi tasvirlar o‘quvchi qalbida unga nisbatan rahm-shafqat hissini sal bo‘lsa-da uyg‘otib, hayotning shunaqa tomonlari ham borligi haqida o‘ylashga majbur etib turganda birdaniga mehribon, zarur narsalarni o‘zi bilan olib yuruvchi ayolning paydo bo‘lishi, bir tomondan, o‘quvchini sergaklantirsa, ikkinchi tomondan, Akbarning ham o‘zini o‘nglab olishiga turtki berishi lozim edi. Dastlabki soatlarda shunday ham bo‘ldi. Akbarning o‘zini o‘z uyida mehmondek his qilishi, ayol esa o‘zini mezbondan tutishi ham o‘quvchi diqqatini jalb qiladi: “Go‘yo uy egasi juvon-ku, o‘zi kutilmaganda kelib qolib o‘zini noqulay sezayotgan mehmon” [1.258]. Hikoyaning ba’zi o‘rinlari, albatta, o‘quvchida shubha uyg‘otishi tabiiy. Nafosatning ko‘chada begona erkakka yordam berishi, uning uygacha kuzatib, uyiga ham kirishi, choy qo‘yib, isitma tushiradigan, shamollashga qarshi dorilar berishi, Akbardan uning yomg‘irda ivigan kiyimlarini olishi, ketishda eshikni o‘zi yopib ketishi ayolning bir qarashda o‘ta mehribonchiligi ostida allaqanday sir borligiga ishora ham seziladi. Shu tariqa yozuvchi roviylar nutqidagi tafsilotlar zamiriga ayolning ruhiyatiga ishora qiluvchi unsurlarni ham singdirib yuborgan. Ertasi kuni yana ko‘chada uchrashib qolishlari, keyingi kun qayta uchrashishi va ayol o‘z hayotini, “dardi” aytib berishi va uchinchi marta uchrashanda turmush qurish haqida taklif olishi va muddat so‘raganda, yigitning bir hafta yetadimi, deyishi-yu, bu uzoq muddat degandek “vuy... namuncha?” deb javob qilishi kitobxonda Nafosat obraziga nisbatan



ziddiyatli tasavvurlar uyg‘otadi. [1.260]. Yozuvchi personajning gap-so‘zlariyu xattiharakati orqali uning asl qiyofasini ochib boraveradi. Ilk uchrashuv paytida Nafosat Akbarning ichganini bilmagan sodda ayoldek ko‘rinadi. Nafosat haqida shunday xayolga borgan Akbar keyinchalik unga o‘zining piyonista ekanligini aytganida, ayoldan men buni sezgandim, degan javob oladi, bundan Akbarning butun ichki olami ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketadi. “Bilgandim... - shikasta, past ovozda aytilgan bu so‘z Akbarning qulog‘iga chinni piyola jarangidek yoqimli eshitildi. Ammo u quloqlariga ishonmadi. Quloqlarim meni aldayapti, deb o‘yladi. Yuzini to‘sgan kaftlarini tushirishga ham urinmadi. Ojizlik qildi” [1.263]. Akbarning o‘z hayotidan, o‘zining ahvolidan uyalishi, ayolning qarshisida vijdoni uyg‘onib, xuddi kimdir unga shapaloq tortib yuborayotgandek yuzini to‘sgani uning ma’naviy olamida g‘urur, uyat hali butunlay yo‘q bo‘lib ketmaganligini ko‘rsatadi. Akbarning or-nomusi kuchli, g‘ururi baland ekanligini ko‘rsatadigan detallar avvalroq boshqa o‘rinlarda ham beriladi. Lekin shu yerda Nafosatning ham rangi oqarib ketadi – u o‘zining g‘araz niyati oshkor bo‘lib qolishi mumkinligidan qo‘rqib ketadi. Biroq ayolda faqat o‘zi kutgan fazilatlarnigina ko‘rayotgan Akbar buni sezmaydi. Shu tariqa Akbar va Nafosatning ichki olamidagi o‘zaro ko‘rinmas ziddiyatga ayrim ishoralar beriladi, biroq Nafosat Akbarni o‘ldirib, ma’raka va boshqa marosimlarini o‘tkazib, qizini ham o‘ldirish niyatini oshkor qilmaguncha uning asl qiyofasi yuzaga chiqmaydi. Yozuvchi shu o‘rinda “adabiyot odamni individ va omma bilan muloqotga kiritish, bir kishiga tegishli axborotlarni ommaga yoxud ommaga doir ma’lumotlarni alohida shaxslarga yetkazish orqali ularni o‘zaro aloqaga kiritish vositasiga aylanadi” [2.31] degan qarashdan kelib chiqib ish yuritadi. Natijada asar so‘nggidagi dialogik nutq orqali personajlar ruhiyati va umuman insoniy mohiyati oshkor qilinadi. Hikoya oxirida Akbarning nogiron qizini uyiga olib kelgan Nafosatga doktor Davlat “Bir umr nogiron qizni boqib o‘tirmoqchimisani, nima balo? Joningga tegib ketsa undan qanday qutulasan?” deya savol beradi. “Ayol hiringladi. – Bu oson... – Yana margimushmi? – Nima qipti? Nafosat sigareta qoldig‘ini kuldonga tashlab, o‘rnidan turdi. Qaddini g‘oz tutgancha viqor bilan yurib eshik kesakisiga suyanib turgan Davlatning oldiga keldi: – Nima qipti? – deya takrorladi u. – Bu safar dozasini sal oshirsak, qiyinchilik uzoqqa cho‘zilmaydi. Yana jichcha margimush topib beraolasanmi, azizim?” [1.274] Mazkur dialog, unda personajlar holati, harakatlariga berilgan izohlar qisqa va sodda gaplardan iborat ekanligi bilan e‘tiborga loyiq. Bu epizod personajlar ruhiyatiga yovuzlik juda chuqur o‘rnashib olganini, ular uchun bu odatiy hol ekanini ko‘rsatadi. “Cho‘qqi soqolli” ta’rifi Davlatning shaytonga xos ta’rifi bo‘lib, uning ismi oldiga

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



doktor qo‘yib aytilishi ham noan‘anaviy holat. Shuningdek, uyni qo‘lga kiritish uchun Davlat va Nafosat o‘ylab topgan hamda amalga oshirgan qotillik inson qiyofasidagi shayton va uning jazmaniga qiyoslanadi. Bu yerdagi har bir jumla va o‘zaro munosabat bu ikkisining ruhiy dunyosi allaqachon hayvoniy qiyofaga kirgani, nafs va gunohlarga to‘lganini ko‘rsatadi. Bu orqali ma‘naviy qashshoqlik insonlarni qay darajada “madaniy yovvoyilik”ka olib borgani aks ettirilgan. Aslida insoniyatning asosiy baxti yuqori darajada axloqiy-ma‘naviy komillikka erishish va shu orqali oliy darajadagi ruh, qalb va idrok erkinligini kashf etish hisoblanadi. Lekin Zulfiya Qurolboy qizining “Momo Havo” hikoyasi personajlari boshqacha yo‘l tutishadi. Iqtidorli adiba qalami orqali ularning insonga xos bo‘lmagan qiyofasi, shaytoniy havaslar orqali amalga oshirgan tubanliklari yuksak darajada mahorat bilan aks ettirib berilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq: hikoyalar. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 255-274.
2. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 464 b.
3. Кант, Иммануил. Из лекций по этике / Этическая мысль. – М.: Политиздат, 1990. – 480 с.
4. Трубецкой Е.Н. Смысл жизни // <http://www.litres.ru/> 602415. мурожаат этилган сана: 2018.09.07.